

## YEVROPA SHOIRLARIDAN BIRI I.V.GYOTE “GARB-U SHARQ DEVONIDA” SHARQ MUMTOZ SHE’RIYATI DURDONALARI

*Fayziyeva Komila Axrorovna*  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti.*

*Annotasiya:* Romantizm adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri asar syujetida fantaziya, ajoyib-g‘aroyib voqealarning real voqealarga aralashib ketishidir. Antik adabiyotda Arastu (Aristotel) bu qoidani barcha badiiy asarlarga taalluqli deb biladi. “Shoirning vazifasi haqiqatdan bo‘lib o‘tgan voqea haqida emas, balki taxmin etilgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan, bo‘lishi taxmin etilgan yo bo‘lishi zarur bo‘lgan voqea haqida so‘zlash (yozish)dir.

*Kalit so‘zlar:* mumtoz she‘riyat, shoir, sharq, badiiy asar, adabiyot, tadqiqot, madrasa, xususiyat

## ШЕДЕВРЫ КЛАССИЧЕСКОЙ ВОСТОЧНОЙ ПОЭЗИИ В «ЗАПАДНОМ И ВОСТОЧНОМ ОТДЕЛЕНИИ» ОДНОГО ИЗ ЕВРОПЕЙСКИХ ПОЭТОВ И. В. ГЕТЕ

*Файзиева Комила Ахроровна*  
*Доцент Университета экономики и педагогики.*

*Аннотация:* Одной из важных особенностей литературы романтизма является смешение в сюжете произведения фантастических событий с реальными событиями. В античной литературе Аристотель считает, что это правило применимо ко всем произведениям искусства. «Задача поэта — говорить (писать) не о событии, которое произошло на самом деле, а о событии, которое ожидается или может произойти.

**Ключевые слова:** классическая поэзия, поэт, востоковед, художественное произведение, литература, исследования, медресе, характеристика.

**THE MASTERPIECES OF CLASSICAL ORIENTAL POETRY IN  
"THE WEST AND EAST DIVISION" OF ONE OF THE EUROPEAN POETS  
I. V. GOETHE**

*Fayziyeva Komila Akhrorovna  
Associate Professor of the University of Economics and Pedagogy.*

*Annotation:* One of the important features of romanticism literature is the mixing of fantasy and fantastic events with real events in the plot of the work. In ancient literature, Aristotle considers this rule to apply to all works of art. The task of the poet is to speak (write) not about the event that actually happened, but about the event that is expected or may happen, is expected to happen or should happen.

**Key words:** classical poetry, poet, oriental, artistic work, literature, research, madrasa, characteristic

**Kirish.** I.V.Gyote ingliz, fransuz, olmon sharqshunoslarining tadqiqotlaridan foydalanib, fors tilida yozgan she'riyat daholarining hayoti va ijodi haqida nodir ma'lumotlarni keltirdi. Uning shoir Anvari haqida yozganlari Alisher Navoiy va Jomiyning zamondoshi amir Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" dostonida uchraydi. "Tazkirat ush-shuaro"dan: (Muhtojlikka tushib qiynalib qolgan) Anvari madrasa darvozasi yonida o'tirgan edi, bir talay g'ulomi bilan o'tib borayotgan hashamatli otliqqa ko'zi tushdi. "Bu kim ekan? – deb so'radi. Bu odam bir shoir" deb javob qildilar. Anvari shu kecha sulton Sanjarga madhiya yozib, qabul vaqtida o'qib berdi. Sultonga bu she'r ma'qul kelgan edi.

I.V.Gyote ham "G'arbu Sharq devoni"da shu so'zlarni yozadi. "Anvari maktab madrasalar bilan mashhur bo'lgan Tusda tahsil oldi. Bir kuni u madrasa hujrasi darvozasi oldida o'tirganida bir necha hashamatli xizmatchilari davrasidan o'tib borayotgan mansabdorni ko'rib qoladi ..." Anvariyning o'zini munajjim deb

tanitib, bashorat qilishi, bashorati xato chiqishi haqida yozganlari ham Davlatshohda mavjud edi. [1]

Yevropa shoirlaridan I.V.Gyote “G‘arb–u Sharq devoni”da Sharq mumtoz she‘riyati durdonalarini, Firdavsiy, Anvari, Nizomiy, Hofiz, Sa‘diy, Jaloliddin Rumi hayoti va ijodini yaxshi bilishini ko‘rsatdi. Jaloliddinning otasi Balx ulamolari bilan (Gyote fikricha, Balx xonimi bilan) nizolashib qolganida ota, bola Rimga yo‘l oladi. Yo‘lda ular mashhur valiy shoir, fors she‘riyati va tasavvuf daholaridan Farididdin Attorni uchratdi. F.Attor o‘smir Jaloliddinga o‘zining “Asrornoma” kitobini taqdim qilib, uning kelgusida jahonga mashhur bo‘lishini bashorat qiladi. F.Attorning bashorati yuzaga chiqadi. Jaloliddin buyuk shoir va faylasuf, mutafakkir bo‘lib yetishganida “Biz bu yo‘lda (tasavvufda) Sanliy va F.Attorning izidan keldik” deydi. Alisher Navoiy aziz-avliyolar haqidagi “Nasoyimul-muhabbat min shamoyim–ul futuvvat” (“Mardlik epkinlaridan esgan shabbodalar”) asarida Jaloliddin Rumiyning ushbu fikrini keltiradi.[2] I.V.Gyote “G‘arb–u Sharq devoni”da Jaloliddin Rumiyning “Haq taolo yaratgan har ikki olamning ajoyibligini, ma’naviy olam cheksiz go‘zalligini, ammo odamlarning kamol topmagani haqidagi g‘oyalarini masalalar, rivoyatlar, hikoyatlar yordamida tushunganini aytadi. I.V.Gyote ushbu maqolasida Chingizxon hamma azizlarning maqbaralarini vayron qilsa ham Jaloliddin Rumiyning qabriga tegmadi, – deydi. Olmon shoiri va olimi I.V.Gyote “G‘arbu Sharq devoni”da Sa‘diy va Hofuz hayoti va ijodini juda qisqa ta’riflaydi.

Vashington Irving “Rip van Vinkl” novellasining boshlanish qismida adabiy qahramon yashagan muhitni (xronotopni), Ripning xarakterini realistik ruhdagi detallar-tafsilotlari bilan tasvirlaydi. Ripning xotini uni uy-ro‘zg‘or ishlariga qarashmagani uchun doimo koyishidan bilamizki, bu oilada qullar mehnatidan foydalanilmaydi.[4]

Demak, Rip quldorlik yo‘q qilingan Amerikaning shimolida yashaydi. Yarim kechasi haybatli tog‘lar orasida chavg‘on o‘ynayotgan golland zobitlariga Rip van Vinkl bochkalarni yelkasiga ortib, may-vino tashiydi.

Unda Rip van Vinklning tog‘dan uyiga qaytganida hech kim uni tanimasligi, u ham hech kimni tanimay qolishi, faqat 20 yil avval go‘dak bo‘lgan qizalog‘i Judit yaxshi yigitga tegib, Rip ismli o‘g‘ilni ko‘tarib olgani aytiladi, Rip van Vinkl xotini vafot etganini eshitib, xursand bo‘lishi, faqat qizi unga mehribon bo‘lishi, otasiga yaxshi xonani jihozlab, oziq-ovqatiga qarashi, Ripning 20 yil avval yosh, dangasa, o‘yinqaroq bo‘lgan o‘g‘li esa ulg‘ayib, mehnatsevar yaxshi fermerning qo‘lida ishlayotgani, lekin otasi kabi dangasa, mehnatdan qochadigan bo‘lgani eslanadi.

Romantizm adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri asar syujetida fantaziya, ajoyib-g‘aroyib voqealarning real voqealarga aralashib ketishidir. Antik adabiyotda Arastu (Aristotel) bu qoidani barcha badiiy asarlarga taalluqli deb biladi. “Shoirning vazifasi haqiqatdan bo‘lib o‘tgan voqea haqida emas, balki taxmin etilgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan, bo‘lishi taxmin etilgan yo bo‘lishi zarur bo‘lgan voqea haqida so‘zlash (yozish)dir. Zero, tarixchi va shoir bir-biridan biri vazn, nazmda, boshqasi esa nasrda yozishi bilan farqlanmaydi. Tarixchi va shoir biri haqiqatdan bo‘lgan, ikkinchisi esa bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea haqida so‘zlaydi. [3]

Washington Irving “Rip van Vinkl” novellasida tarixchi sifatida emas (unda tarix eslansa-da), balki shoir sifatida xayoliy voqeani tasvirlaydi.

Washington Irving “Rip van Vinkl” novellasida adabiy qahramon uchun bir nechta, boshqalar hayotida 20 yilda yuz bergan voqealarni tarixchi sifatida emas, balki shoir sifatida ko‘rsatadi. Tarixchi isbotlaydi, shoir ko‘rsatadi. Arastu “Poetika”da yozishicha, tragediyada (barcha mukammal badiiy asarlarda ham) ajoyibotlarni yozish kerak. “Bibliya” va “Qur’on”da tasvirlangan barcha payg‘ambarlarning hayotida ajoyibotlar, mo‘jiza ko‘p uchraydi. “Qur’on”da ma’jusiylilikni ko‘p xudolikni tan olmagan uch o‘smir va ularning bir iti zolim podshoh (Daqqi yunus, Diokletian) ta’qibidan tog‘larga qochib, bir g‘orga kirib, yashirinib, uch yuz yil uxlab qolgani haqida rivoyat mavjud bo‘lgan. [5]

“Qur’oni karimning” 18 – “Qahr” surasini o‘zbekchaga izohli tarjima qilgan Alouddin Mansur shu surani sharhlab: “Mufassirlar” yozishlaricha, “Ashobi Qahf” (G‘or ahli) qissasi bunday bo‘lgan ekan: Iso alayhis-salom zamonlaridan kelgan

Rumda Daqiyonus nomli zolim shoh chiqib, odamlarni butlarga (Zevs, Apollon ...) ibodat qilishga majburlar, amriga bo'ysunmagan kishilarni esa jonidan kechishga majbur qilar edi. Bir kuni unga fuqarolardan bir necha yigit shohning amriga bo'ysunmagani haqida xabar berishibdi. Shoh yigitlarni, o'z huzuriga chaqirib, Hozir sizlarni o'ldirgim kelmayapti, bir kun muhlat beray, butlarga sajda qilishga o'ylab ko'ringlar, – deydi. Yigitlar bu muhlatdan foydalanib, bu davlatdan chiqib ketishga qaror qiladi. [6]

“Qur'on”da bu rivoyat Muhammad payg'ambarga Alloh tomonidan aytib beriladi: “Eslang, u (yosh yigitlar, o'smirlar) g'orga panoh (boshpana) istab borishib, “Parvardigoro, bizlarga o'z huzuringdan rahmat-marhamat ato etgin va bizlarning shanimizni o'zing o'nlagin” dedilar. Bas, biz o'sha g'orda bir necha yil quloqlariga urib uxlatib qo'ydik ... (Ey, Muhammad), biz sizga ularning hol-xabarlarini ro'yi-rost so'yliamoqdamiz; – darhaqiqat, ular parvardigoriga iymon keltirgan va ularning iymonini ziyoda qilgan yigitlar edi”. “Qur'on”da yosh yigitlar-o'smirlarga g'orni topib yashirishni ham Alloh buyuradi, ularga mehribonlik qiladi. “Qur'on”da Alloh payg'ambari Muhammadga Rim imperatorining ko'pxudolikni (Zevs, Apollon, Afina, Afroditaga sig'inishni) inkor etib, yakkaxudolikni Iso Masih orqali xalqqa yetkazgan zamoni kelguncha uxlatib qo'yganini tushuntiradi: “Biz ularning dillarini (ma'jusiylilikni, ko'pxudolikni inkor etgan yigitlarning dillarini) quvvatlantirdik”. O'shanda ular zolim shoh qarshisida turib) – dedilar: “Bizning parvardigorimiz osmonlar va yerlarning xudosidir”. Biz undan o'zga biror ilohga hargiz iltijo qilmaymiz. Aks holda, nohaq so'zni aytgan bo'lurmiz”. Shundan so'ng “Qur'on”da Ashobi Kaxf-G'or ahli nechtaligi uchta va bir it, beshta va bir it deb talashuvchilarga Muhammad “Buni faqat Alloh biladi” deyishi kerakligi, G'or ahlining uzoq yil uxlaganini isboti ularning tangalari shaharda qadimgi deb, o'tmay qolgani aytiladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkin, Vashington Irving “Qur'on”da kelgan bu rivoyatni yaxshi bilgan va “Rip van Vinkl” novellasida shu rivoyatdan boshqa g'oyani badiiy ifodalash uchun foydalangan. Agar “Qur'on” rivoyatida diniy e'tiqod, iymonli bo'lishning buyuk ahamiyati isbotlansa, V.Irving novellasida

aksincha, adabiy qahramon – Rip van Vinkling tog‘larda 20 yil uxlab qolgan hajviy va romantik ruhdagi syujetga aylanadi. V.Irving novellasida qahramon xarakteri – Ripning uy-ro‘zg‘or ishlarida oilaga, xotiniga yordam bermay, bir to‘da o‘ziga o‘xshash dangasa do‘stlari qatorida qahvaxonada kayf-safo qilishni yaxshi ko‘rishi – asar syujetini shakllantiradi. “Qur‘on” rivoyatida bir necha o‘smir zolim podshohning zulmidan tog‘larga qochib, g‘orga yashirinib juda uzoq (bir necha asr) uxlab qolsa, V. Irving novellasi qahramoni oilada xotining zulmidan tog‘larga qochib, bir necha asr avval Gudzon daryosini va dengizini, Amerikaning shimolini kashf etgan golland harbiylarining chavgon o‘ynab, vino to‘la bochkalarni bo‘shatganini ko‘rib, ularga vino tashigani, yo‘lda o‘g‘rincha gollandlarning vinosidan ichib, mast bo‘lib uxlab qolishi tasvirlandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Гёте И.В. Западно-восточный диван. – Москва: «Наука», 1988. – С. 223.
2. Firdavsiy Sul-ton Mahmudga madhiya. “Shohnoma” qayta nashr. – Toshkent: “Milliy ensiklopediyasi”. 2018. – B. 46.
3. Давлатшоҳ Самарқандий “Шоирлар бўстони” (“Тазкиратуш-шуаро”), – Т., 1985. – Б. 43.
4. Ирвинг В. Новеллы. – М.: «Правда», 1985. – С. 29–31.
5. Арасту. Поэтика. – Т., 2004. – С. 29.